

QADIMGI XETT DAVLATI

Mahmudova Zulfiya Alimjanovna

Andijon Davlat pedagogika instituti

Ijtimoiy gumanitar fanlar kafedrası o'qituvchisi

Nosirov Abduvohob Abduvohid o'g'li

Andijon Davlat pedagogika instituti

Ijtimoiy gumanitar va san'at fakulteti 102-guruh talabasi

Annotatsiya: Xett davlati - miloddan avvalgi XVIII-XII asrlarda Kichik Osiyoda mavjud bo'lgan qudratli davlat. Temir metallurgiyasi, harbiy san'at va diplomatiyada katta yutuqlarga erishgan. Xattusa poytaxti orqali savdo yo'llarini nazorat qilgan. Yozma qonunlar, rivojlangan madaniyat va ko'p tilli arxiv tizimi bilan mashhur bo'lgan.

Abstract: The Hittite Empire was a powerful state in Asia Minor during the 18th-12th centuries BC. They achieved great success in iron metallurgy, military arts, and diplomacy. Through their capital Hattusa, they controlled important trade routes. They were famous for their written laws, developed culture, and multilingual archive system.

Абстрактный: Хеттское царство - могущественное государство, существовавшее в Малой Азии в XVIII-XII веках до н.э. Достигли больших успехов в металлургии железа, военном искусстве и дипломатии. Через столицу Хаттусу контролировали торговые пути. Славилась письменными законами, развитой культурой и многоязычной архивной системой.

Kalit so'z: Xattusa, Kichik Osiyo, temir, metallurgiya, diplomatiya, qonunlar, podsholik, jangchilar, arxiv, mixxat, savdo, hunarmandchilik, ibodatxonalar, qal'alar, xudolar, shartnomalar, elchilar, dehqonchilik, harbiy, til, yozuv, madaniyat, san'at, davlat, an'analar

Key word: Hattusa, Asia Minor, iron, metallurgy, diplomacy, laws, kingdom, warriors, archives, cuneiform, trade, crafts, temples, fortresses, gods, treaties, ambassadors, agriculture, military, language, writing, culture, art, state, traditions

Ключевые слова: Хаттусса, Малая Азия, железо, металлургия, дипломатия, законы, царство, воины, архивы, клинопись, торговля, ремесла, храмы, крепости, боги, договоры, послы, земледелие, военное, язык, письменность, культура, искусство, государство, традиции

Kirish

Qadimgi Xett davlati – Kichik Osiyoning shimoliy qismida miloddan avvalgi XVIII-XII asrlarda mavjud bo'lgan eng qadimgi davlatlardan biri hisoblanadi. Bu davlat o'zining noyob madaniyati, rivojlangan davlat tizimi va keng hududiy ta'siri bilan jahon tarixida muhim o'rin egallagan. Xett davlati nafaqat harbiy qudrati, balki yuqori darajada rivojlangan ma'muriy tizimi, qonunchilik asoslari va diplomatic aloqalari bilan ham ajralib turgan. Xetlar o'zlari yaratgan davlatni "Xatti" deb atashgan bo'lib, bu nom ulardan oldin shu

hududda istiqomat qilgan xatti xalqining nomidan olingan. Ular mixxat yozuvidan foydalanib, o'z tillarida ko'plab tarixiy, huquqiy va diniy matnlarni qoldirganlar. Bu yozma manbalar bizga ularning davlat tuzumi, ijtimoiy hayoti va madaniyati haqida boy ma'lumotlar beradi.

Xett podsholigi o'z davrining eng qudratli davlatlaridan biri sifatida Qadimgi Yaqin Sharq mintaqasida muhim rol o'ynagan. Ular Mesopotamiya, Misr va boshqa qo'shni davlatlar bilan diplomatic aloqalar o'rnatib, savdo-sotiq va madaniy almashuvni rivojlantirganlar. Xettlarning harbiy yurishlari va siyosiy ta'siri Suriya va Finikiyagacha yetib borgan. Xett jamiyati o'ziga xos ierarxik tuzilishga ega bo'lib, unda podshoh (tabarna yoki labarna) oliy hokimiyat egasi hisoblangan. Podsho nafaqat davlat boshlig'i, balki oliy ruhoni va harbiy qo'mondon vazifalarini ham bajargan. Davlat boshqaruvi markazlashgan bo'lib, rivojlangan byurokratik apparat orqali amalga oshirilgan. Xettlarning eng muhim yutuqlaridan biri – bu ularning huquqiy tizimi bo'lib, u o'z davrining eng rivojlangan qonunchilik tizimlaridan biri hisoblangan. Xett qonunlari insonparvarlik jihatlari bilan ajralib turgan va jamiyatning barcha qatlamlari manfaatlarini hisobga olgan. Ushbu qonunlar jinoyat va fuqarolik huquqi masalalarini, oilaviy munosabatlarni, mulkchilik va savdo-sotiq masalalarini tartibga solgan. Xett madaniyati ko'p qirrali bo'lib, unda turli xalqlarning ta'siri seziladi. Ular qo'shni xalqlarning diniy e'tiqodlari va madaniy an'analarini o'zlashtirib, ularni o'z madaniyatlari bilan uyg'unlashtirishga muvaffaq bo'lganlar. Bu esa Xett davlatining ko'p millatli va bag'rikeng davlat sifatida shakllanishiga olib kelgan.

Xett arxitekturasida va san'ati o'ziga xos uslubga ega bo'lib, ularda mahalliy an'analar Mesopotamiya va Suriya ta'sirlari bilan qorishib ketgan. Xettlarning poytaxti Xattusa shahri o'zining mustahkam mudofaa inshootlari, saroy majmualari va ibodatxonalari bilan mashhur bo'lgan. Shaharning arxitekturasida va rejalashtirish tizimi o'sha davr shaharsozlik san'atining yuksak namunasi hisoblanadi. Xett davlatining tashqi siyosati ham e'tiborga loyiq bo'lib, ular qo'shni davlatlar bilan diplomatic munosabatlarni rivojlantirishga katta e'tibor qaratganlar. Ayniqsa, Misr fir'avnlari bilan tuzilgan Qadesh sulhi (mil. avv. 1274 y.) tarixdagi eng qadimgi xalqaro shartnomalardan biri hisoblanadi. Xett davlatining iqtisodiy hayoti asosan dehqonchilik va chorvachilikka asoslangan bo'lib, metallurgiya ham muhim o'rin tutgan. Ular temir ishlab chiqarishni yaxshi o'zlashtirganlar va bu sohada texnologiyalarni rivojlantirishga katta hissa qo'shganlar. Xett tili va yozuvi tilshunoslik nuqtai nazaridan katta ahamiyatga ega bo'lib, hind-yevropa tillari oilasining eng qadimgi yozma yodgorliklaridan hisoblanadi. Ularning arxivlarida topilgan minglab mixxat taxtachalari qadimgi Yaqin Sharq tarixi va madaniyatini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Xett podsholigi — Kichik Osiyodagi qadimgi davlat (miloddan avvalgi 18—12-asr boshlari). Tarkibiga xettlar, Xetlar va boshqa etnik guruhlar kirgan. Xettlar podshosi Anittas davri (taxminan XVIII asr)da Anatoliyaning ba'zi viloyatlari birlasha boshlagan. U Nesa, Xattusas shaharlarini bosib olgan. Kussar shahrini poytaxt qilgan. Qadimgi xett sulolasining asoschisi — Labarna (XVII asr boshlari) Xett podsholigi hududini kengaytirgan. Labarnaning vorisi Xattusilis I davri (XVII asr o'rtalari)da Kichik Osiyoning

shimolidagi Salpa shahri va Kichik Osiyoning bir qancha jan.sharqiy viloyatlari batamom bosib olingan. U poytaxtni Xattusasga ko‘chirgan. Xattusilis I ning o‘g‘li Mursilis I (XVII asr oxiri) davrida Xett podsholigining harbiy qudrati nihoyatda oshgan. 14—12-asrlarda Xett podsholari Shimoliy Suriya va Shimoliy Mesopotamiyada yashaydigan xurriy qabilalardan bo‘lgan. Podsho Suppiluliumas I (14-asr boshlari) uzoq davom etgan urushlardan keyin Mitanni (Shim. Mesopotamiyadagi qad. davlat)ni bosib olgan. Ugarit (Shimoliy Finikiyadagi qad. shahardavlat)ni o‘z vassaliga aylantirgan. Mursilis II hukmronligi (14-asr oxiri)dan boshlab Xett podsholigi bilan Misr o‘rtasida Suriya uchun kurash ketgan. 13-asr oxiri — 12-asr boshlarida Xett podsholigi o‘zaro urushlar, qaram viloyatlar va ittifoqdosh podsholiklarning ajralib ketishi tufayli inqirozga uchragan. Qad. Xett podsholigining oxirgi yirik podshosi Telepinu (16-asr oxiri) bo‘lgan. Kichik Osiyoning sharqiga jan. va g‘arbdan xalqdarning ko‘chib kelishi bilan podsholik barxam topgan.



Qadimgi Xett podsholigi M il .a v v. I II mingyillik oxiri va II mingyillik boshlarida Kichik Osiyoda juda ko‘p qabilalar yashagan. Ular birlashib Nesa, Kanish, Burusxand, Kussar va Xattusa kabi alohida shahar- davlatlarni tuzganlar. M il .av v . XVIII asr boshlarida Kussar hukmdori Pitxan yarimorolning sharqiy qismini birlashtirib, o‘zini podsho deb e‘lon qilgan. Pitxanning o‘g‘li Anitta uzoq davom etgan qattiq janglardan so‘ng Nesa Xattusa, Zalpuva kabi shahar-davlatlarini bosib olib, Xett podsholigiga asos soladi. Nesa Xett podsholigining poytaxtiga aylantiriladi. M il .a v v. 1680—1650-yillarda hukmronlik qilgan Labarna (Tabarna) mamlakatni birlashtirishni oxiriga yetkazadi. U mamlakatning ko‘p joylari va Qora dengizning janubiy sohillarigacha bo‘lgan yerlarni istilo qiladi. Pitxam mil.avv. XIX asrning oxiri – XVIII asr boshlari Anita tax. Mil.avv 179 0-1750- yil. Puxasuma mil.avv. XVI asrPapax-Dilma mil.avv. XVI asr oxiriLabarna mil.avv. 1680-1650- yillar Qadimgi Xett davlatining hukmdorlari

Turkiya madaniy merosi jozibadorligining muhim qismini Onado‘li yarim orolida hukmronlik qilgan ko‘plab sivilizatsiyalar izlarida ko‘rish mumkin. Xususan, xettlar ushbu o‘ziga xos madaniy mozaikaning ajralmas tarkibiy qismi bo‘lib, Onado‘lining ilk kuchli va nufuzli imperiyasi edi. Ulkan Xett imperiyasi hududlari hozirgi Onado‘li bo‘ylab keng yoyilgan va Xett xarobalari Turkiyaning Markaziy Onado‘li mintaqasidagi Chorum viloyati chegaralarida joylashgan. Xett yo‘li Turkiyada kam o‘rganilgan tarixiy yo‘l bo‘lsa-da, Xett sivilizatsiyasining qadim manzilgohlarini kashf qilish va uning boy madaniy merosi bilan tanishish imkoniyatini beradi. Bu qudratli imperiya o‘zining 450 yillik hukmronligi davrida insoniyat tarixi va madaniyatiga behisob hissa qo‘shgan.

Xettlarning bronza davri merosi: Alajaho‘yuk

Uzunligi 385 kilometr bo‘lgan Xett yo‘lida bir-biridan taxminan 236 kilometr masofada joylashgan 17 ta piyoda yurish yo‘llari va tog‘ velosiped yo‘llari kabi oltita muqobil yo‘nalish mavjud. Marshrutning asosiy nuqtalari Xett poytaxti Xattusa, imperiyaning eng

yirik shahri Alajaho'yuk va Onado'lining birinchi harbiy va ma'muriy markazi Sapinuva hisoblanadi.

Yo'ning o'zagini Bog'azkale-Xattusa-Sapinuva, Alajaho'yuk-Alaja-Sapinuva va Bog'azkale-Alajaho'yuk yo'nalishi tashkil qiladi. Alajaho'yuk, Bog'azkale va Injesu yo'nalishida yaxshi jihozlangan mehmonxonalar, bungalovlar (bir qavatli uy), yotoqxonalar va lager kabi turar joy turlari mavjud. Xett yo'lida yovvoyi tabiat va tarixiy yodgorliklarni ko'rish imkoniyati, kanon yurish yo'llari mavjud, shuningdek, Chorunga xos taomlar juda ko'p.

Alajaho'yuk Chorunning uchta muhim Xett shahridan biri va Xett yo'lining boshlang'ich nuqtasidir. Turkiyaning ilk milliy qazishma ishlari olib borilgan hududlaridan biri va bronza davri arxeologiyasiga qiziqqan har bir kishi tashrif buyurishi kerak bo'lgan joy bo'lib, hududda 6000 yildan ko'proq vaqtdan buyon hayot mavjud. Uning xazinalari Xett davrlariga borib taqaladi. Alajaho'yukdagi Xett aholi punktlari keng mudofaa tizimlari va bosqinlarning oldini olish uchun qurilgan kuchli darvozalari bilan diqqatni tortadi.

Sfenks darvozasi shaharning ikkita asosiy kirish darvozalaridan biri bo'lib, minoralar, tosh bloklar va tashqi devorida o'yma naqshlar mavjud. Alajaho'yuk haqidagi to'liq ma'lumotni Anqaradagi Onado'li sivilizatsiyalari muzeyidan topish mumkin. Muzeyda shaharning eng muhim topilmalari, jumladan, Xett tamadduni va san'atining timsoli hisoblangan Sfenks darvozasining asl bezaklari va qirollik qabrlaridan topilgan qabr sovg'asi bo'lgan kumush naqshli bronza kiyik haykalchasi, Xett davriga oid kumush naqshli bronza buqa haykalchasi kabi noyob antik davr xazinalari mavjud.

Qadimgi Xett poytaxti: Xattusa

Manzilning keyingi bekati Bog'azkale tumanida joylashgan Xattusa shahridir. Shahardan topilgan 30 000 ta loy lavhaning ko'pchiligida «Mingta xudolar shahri» nomi bilan tilga olingan Xattusa 450 yil davomida Xett sivilizatsiyasining poytaxti bo'lgan va YuNESKOning Jahon madaniy merosi hamda «Jahon xotirasi» reyestriga kiritilgan. Kadesh tinchlik shartnomasi loy lavhalar orasida ma'lum bo'lgan qadimgi tinchlik shartnomasi bo'lib, ushbu lavhalar hozirda Istanbul arxeologiya muzeylaridan Qadimgi Sharq san'ati muzeyida saqlanmoqda.

Uzoqdan qaralganda atrofi yashillik bilan o'ralgan ulkan tosh jumboqni eslatuvchi Xattusa, shubhasiz, ibodatxona xarobalari, monumental darvozalari, qirollik binolari va shahar devori qoldiqlari bilan diqqatga sazovor ochiq osmon ostidagi muzeydir. Eng muhim inshootlardan biri bo'ron xudosi Teshub va quyosh ma'budasi Arinnaga bag'ishlangan Buyuk ibodatxonadir. Shaharga kirishni ta'minlovchi Sfenks darvozasi va Qirol darvozasi kabi haybatli monumental darvozalar ham xarobalar orasidagi ramziy yodgorlikdir. Qadimiy Xattusa shahridan qazib olingan artefaktlar va yodgorliklar Anqara Onado'li sivilizatsiyalari muzeyi va Bog'ozko'y muzeyida namoyish etiladi.

Xettlarning diniy markazi: Sapinuva

Xett yo'lidagi so'nggi bekat - Sapinuva. Bugungi O'rtako'y tumanida joylashgan shahar siyosiy va geografik joylashuvi tufayli Xettlar davrida muhim harbiy va diniy markaz bo'lgan. Sapinuva keng qamrovli shahar bo'lib, unda ikkita bo'ron xudosi nomiga alohida

qurilgan ikkita ibodatxona va malika saroyi va armiya qo‘mondonligi kabi muhim muassasalar joylashgan.

Bundan tashqari, shaharda 4000 ga yaqin Xett mixxat lavhalari topilgan. Xett sivilizatsiyasiga oid muhim hujjat hisoblangan ushbu lavhalar hozir Chorum arxeologiya muzeyi kolleksiyasining bir qismidir. Sapinuva yaqinidagi Alaja choy vodiysi va Injesu kanoni tashrif buyurishga arzigulik maskanlardan hisoblanadi.



Xulosa

Qadimgi Xett davlati jahon sivilizatsiyasi tarixida o‘chmas iz qoldirgan buyuk davlatlardan biri sifatida e’tirof etiladi. Ularning davlat boshqaruvi tizimi, huquqiy asoslari, madaniyati va diplomatic aloqalari keyingi davrlarda ham ko‘plab davlatlar uchun namuna bo‘lib xizmat qilgan. Xettlarning eng muhim merosi – bu ularning qonunchilik tizimi bo‘lib, u o‘z davrining eng ilg‘or huquqiy hujjatlaridan biri hisoblanadi. Ushbu qonunlar insonparvarlik tamoyillariga asoslangan bo‘lib, jamiyatning barcha qatlamlari manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan. Xett qonunlari keyingi davrlarda ham huquqiy tizimlarning rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatgan. Xett davlatining ko‘p millatli va bag‘rikeng siyosati ham e’tiborga loyiqdir. Ular turli xalqlarning madaniyati va diniy e’tiqodlarini hurmat qilib, ularni o‘z davlat tizimiga muvaffaqiyatli integratsiya qilganlar. Bu siyosat davlatning barqaror rivojlanishi va uzoq muddat mavjud bo‘lishini ta’minlagan omillardan biri bo‘lgan.

Xettlarning diplomatic aloqalari va xalqaro munosabatlardagi tajribasi ham katta ahamiyatga ega. Ular qo‘shni davlatlar bilan tuzgan shartnomalar, ayniqsa Misr bilan tuzilgan Qadesh sulhi, xalqaro huquq tarixida muhim o‘rin tutadi. Bu shartnomalar zamonaviy diplomatic protokollar va xalqaro shartnomalarning ilk namunalari sifatida qaralishi mumkin. Xett arxitekturasini va shaharsozlik san’ati o‘zining noyoblighi bilan ajralib turadi. Poytaxt Xattusa shahri va boshqa yirik shaharlarning rejalashtirish tizimi, mudofaa inshootlari va me’moriy yodgorliklari qadimgi shaharsozlik san’atining yuksak namunalari hisoblanadi. Bu me’moriy meros keyingi davrlarda ham ko‘plab sivilizatsiyalarga ta’sir ko‘rsatgan.

Xettlarning metallurgiya sohasidagi yutuqlari, ayniqsa temir ishlab chiqarish texnologiyasini rivojlantirish borasidagi xizmatlari alohida e’tiborga loyiq. Ular yaratgan texnologiyalar va usullar keyingi davrlarda metallurgiya sanoatining rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan. Xett tili va yozuvi tilshunoslik fani uchun bebaho manba hisoblanadi. Ularning arxivlarida saqlangan minglab mixxat taxtachalari nafaqat Xett davlati tarixi, balki butun Qadimgi Yaqin Sharq tarixi va madaniyatini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xett davlatining harbiy tashkiloti va harbiy san’ati ham o‘z davrining eng rivojlangan tizimlaridan biri bo‘lgan. Ularning jang taktikasi, qurol-yarog‘lari va harbiy boshqaruv tizimi keyingi davrlarda ham ko‘plab davlatlar tomonidan o‘rganilgan va qo‘llanilgan. Xett madaniyatining ko‘p qirraliligi va sintezlashuvi ham alohida e’tiborga loyiq. Ular turli madaniyatlarning eng yaxshi jihatlarini o‘zlashtirib, ularni o‘z milliy an’analari bilan

uyg'unlashtira olganlar. Bu tajriba madaniyatlararo muloqot va madaniy almashuvning muhim namunasi sifatida qaralishi mumkin.

Xett davlatining yemirilishi va qulashi Qadimgi Yaqin Sharq mintaqasida katta o'zgarishlarga olib kelgan bo'lsa-da, ularning merosi keyingi sivilizatsiyalar tomonidan o'zlashtirilgan va davom ettirilgan. Xetlarning davlat boshqaruvi tajribasi, huquqiy tizimi, madaniyati va san'ati jahon sivilizatsiyasi rivojiga katta hissa qo'shgan. Bugungi kunda Xett davlati tarixi va madaniyatini o'rganish davom etmoqda. Arxeologik qazishmalar va tadqiqotlar natijasida yangi-yangi materiallar topilmoqda, bu esa Xett sivilizatsiyasi haqidagi bilimlarimizni boyitib bormoqda. Bu tadqiqotlar qadimgi sivilizatsiyalarning rivojlanish qonuniyatlarini, davlatlarning shakllanishi va rivojlanish jarayonlarini tushunishga yordam beradi. Xett davlati tajribasi zamonaviy davr uchun ham muhim saboqlar beradi. Ularning ko'p millatli davlat boshqaruvi, madaniyatlararo muloqot va xalqaro munosabatlar sohasidagi tajribasi bugungi global dunyoda ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Xrestomatiya po istorii Drevnego Vostoka, pod. Red;
- 2.V. V. Struve i D. G. Redera, M., 1963; Struve V. V.;
3. Qadimgi Sharq tarixi, T., 1956; Turayev B. A.;
- 4.Yegipetskaya literatura, t. I, M., 1920;
- 5.Matye M. E., Iskusstvo Drevnego Yegipta, M., 1958;
- 6.Vseobshaya istoriya arxitekturi, t. I, M., 1970 Inaya kultura Yegipta, v kn.;
- 7.Muzikalnaya kultura drevnego mira, [Sb. statey], L., 1937; L a u yer J. F.,
- 8.Zagadki yegipetskix piramid, per. s frans., M., 1966; Ney
- 9.Briant, P. (2002). From Cyrus to Alexander: A History of the Persian Empire. Winona Lake: Eisenbrauns.
- 10.Kuhrt, A. (2007). The Persian Empire: A Corpus of Sources from the Achaemenid Period. London: Routledge.
- 11.Dandamaev, M. A. (1989). A Political History of the Achaemenid Empire. Leiden: Brill.
- 12.Wiesehöfer, J. (2001). Ancient Persia: From 550 BC to 650 AD. London: I.B. Tauris.
- 13.Curtis, J. & Tallis, N. (2005). Forgotten Empire: The World of Ancient Persia. London: British Museum Press.
- 14.Brosius, M. (2006). The Persians: An Introduction. London: Routledge.
- 15.Waters, M. (2014). Ancient Persia: A Concise History of the Achaemenid Empire, 550-330 BCE. Cambridge: Cambridge University Press.